



MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI TARBIYALANUVCHILARINING BILISH KO'NIKMALARINI RIVOJLANISHIDA O'YIN MUHIM VOSITA SIFATIDA

Alimardonova M.B.

*Qarshi Davlat Universiteti Maktabgacha ta'lim kafedrası
o'qituvchisi*

Tayanch so'zlar: ta'limiy o'yinlar, bolalar, bilish, ko'nikma, rolli o'yin.

Ключевые слова: развивающие игры, дети, знания, умения, ролевая игра.

Key words: educational games, children, knowledge, skills, role-playing game.

Shaxs hayotining dastlabki davrida uning asosiy ehtiyojlari, xohish-istaklari, orzu-umidlari aynan o'yin mazmunida, harakatlarida o'z ifodasini topadi. Bola ijtimoiy munosabatlarga kirishar ekan, u har qanday faoliyatni mustaqil amalga oshirishga intiladi, katta yoshdagilarning faoliyatlariga bevosita ishtirok etishga harakat qiladi. Bola tashqi olam haqida qanchalik ko'p ma'lumotga ega bo'la boshlasa, uning kattalar hayotiga qiziqishlari ham ortib boradi. O'yin faoliyati davomida esa bola katta yoshdagilar xatti-harakatlariga taqlid qilgan holda o'zini kattalardek tutish imkoniyati paydo bo'ladi. Aynan o'yin faoliyatida bola mustaqil harakatlanadi, o'z xohish irodasini, orzularini, tasavvurlarini, tuyg'ularini erkin ifodalaydi. O'yin jarayonida bola boshqa faoliyat turlarini ham o'zlashtira boradi: bilimlarni o'zlashtiradi, mehnat ko'nikmalari shakllanadi, jismoniy mashqlarni o'zlashtiradi, muloqot qoidalari, tartib-intizom qoidalari amal qilishni o'rganadi.

Boladagi qiziqishlarni kuchaytirishda va erkin fikrlarini namoyon etishda o'yinlarning imkoniyati kattadir. Chunki, o'yinlar bolaning bilish ko'nikmasini rivojlanishida foydalaniladigan vosita sifatida muhim o'rin egallaydi.

O'yinlar mohiyatiga ko'ra ta'lim va tarbiya maqsadlari hamda ijodiy o'yin elementlarini o'zida birlashtiradi.

Bolalar o'yinlarini ularning ijtimoiylashuvidagi, ya'ni tashqi olamga moslashuvi, voqea-hodisalarni tushunishlari uchun xizmat qilish bilan bir qatorda, ularga ta'lim berish va davolashda ham asosiy vosita bo'lib xizmat



qiladi. Chunki, o‘yin bolalar uchun eng qiziqarli faoliyat turi sifatida xizmat qiladi. Shu sababli, o‘yinlarni tashkil etishda bolaning mayl-istaklarini inobatga olinishi hamda bolani yoshiga mos keluvchi holatlarni ifoda etishi maqsadga muvofiq. Bolalarni ular uchun qiziqarli o‘yin faoliyatiga jalb qilishdan maqsad ularning o‘zligini kengroq namoyon qilishga imkon beradigan rollarga murojaat qilish; bolaning o‘sishi, rivojlanishi, ulg‘ayishining ifodalanishi; o‘yin jarayonida o‘z muammolarini hal etishdir.

Psixologiyada o‘yinlar muammosi ustida katta izlanishlar olib borgan P.F.Kapterevning didaktik o‘yinlarni tanlash va o‘tkazishdagi qarashlari muhim hisoblanadi. U bolalarga ta‘lim berishda turli holatlarni va vaziyatlarni inobatga olish lozimligini va bunda o‘yinlar juda qo‘l kelishini ta‘kidlab o‘tadi.

O‘quv jarayoni va o‘yin faoliyatining bir-biriga mosligi, ular o‘rtasida qarama-qarshilikning bo‘lmasligi ta‘limiy maqsadlarga erishishga yordam beradi. O‘quv jarayoni o‘yinlar bilan uyg‘unlashtirilganda bilim oluvchilarni zeriktirmaydi va ta‘limga bo‘lgan qiziqishini oshiradi.

P.F.Kapterevning ta‘biricha, o‘yinlar tizimli o‘rganishga asoslangan bo‘lib, bahs-munozara muhitini vujudga keltirishi kerak. O‘qish, o‘rganish jarayoni bilan o‘yin faoliyati o‘zaro bir-birini to‘ldiruvchi hodisalardir. Ular o‘zining tabiatiga ko‘ra bir-birini boyitadi.

O‘yin bola shaxsining va organizmining har tomonlama rivojlanishiga bevosita ta‘sir ko‘rsatuvchi faoliyat turi hisoblanadi. Ya‘ni o‘yinlarda bola rivojlanishini jadallashtirish va ijtimoiylashtirish imkoniyatlari juda katta. O‘yinlarning yana bir muhim o‘ziga xos xususiyatlari bolalar ijtimoiylashuvi, jismoniy va fiziologik rivojlantirish bilan bir qatorda kognitiv ko‘nikmalarini rivojlantirish imkoniyatlari juda katta.

Maktabga tayyorlov yoshidagi bolalarda tafakkurning tezkorligi, tasavvurning boyligi kabi xususiyatlar xarakterlidir. Shu sababli ham ushbu yosh davrida ular obrazga tez kirishadilar va ular bilan rolli o‘yinlarni o‘tkazish yengil kechadi. Ularning ishonuvchanligi, kirishimliligi, ijtimoiy muloqotga bo‘lgan ehtiyoji o‘yin faoliyatiga kirishishlarida yaqqol namoyon bo‘ladi. Bundan tashqari ular o‘yin qoidalariga qat‘iy amal qiladilar, turli buyumlar, o‘yinchoqlar yordamida amalga oshiriladigan o‘yinlarga ham juda qiziqadilar.

Ta‘limiy o‘yin faoliyatining ahamiyatli tomoni shundaki, bu o‘yinlar bolalarning yosh xususiyatlariga mos keladigan o‘yinlar qatoriga kiradi. Ta‘limiy o‘yinlarda o‘yin maqsadi bilan birgalikda harakat elementlari ham ko‘rsatiladi. Shuningdek, ta‘limiy va tarbiyaviy maqsadlar ham amalga oshiriladi. O‘yinlar davomida bolalarning shaxsiy sifatleri shakllantiriladi va rivojlantiriladi. Ularda turli ijobiy sifatlar bilan bir qatorda tabiatga va jamiyatga ijobiy munosabatlarni, bilim olishga bo‘lgan qiziqishlarni shakllantirish imkoniyatlari juda katta. Shu



bilan birga o‘yinlar davomida berilayotgan topshiriqlar bolalarga o‘z xulq-atvorlari va xatti-harakatlarini boshqarish ko‘nikmalarini shakllantirishga yordam beradi. O‘yinlar davomida erishiladigan g‘alabalar, yutuqlar ularni keyingi faoliyat turlariga rag‘batlantiradi, ularni jamoa bo‘lib harakat qilishga undaydi. Jamoa a‘zolarining o‘yinlar davomidagi muloqoti turli fikrlarining o‘zaro uyg‘unlashuvi, umumiy maqsadga erishish imkoniyatini ta‘minlashga xizmat qiladi.

Maktabga tayyorlov yoshidagi bolalar o‘yin faoliyati davomida ijtimoiy tajribalarni o‘zlashtiradilar, jamoaviy tafakkurlari shakllanib boradi. Jumladan, katta yoshdagilarning muloqot uslublari, mehnat faoliyatlari, ijtimoiy tajribalari o‘yinlarda o‘z ifodasini topadi. Shuningdek, ularning jamoaga kirishimliliigi, mehnatsevarlik, mas‘uliyatlilik, vatanparvarlik, insonparvarlik kabi ijobiy sifatleri ham tarkib topib boradi. Mazkur ko‘nikma va sifatlar o‘yinlar davomida bola ongida tadrijiy tarzda o‘zlashtirib boriladi. Shuning uchun ham, maktabga tayyorlov jarayonidagi mashg‘ulotlar davomida bolalarning barcha faoliyatlari o‘yin bilan muvofiqlashtirgan hamda uyg‘unlashtirgan holda tashkil etilishi maqsadga muvofiqdir. Bunday mashg‘ulotlarning samaradorligi muloqot muhitining yaratilganligi va pedagog tomonidan to‘g‘ri loyihalashtirilganligiga bog‘liq. Pedagog o‘yinli mashg‘ulotlarni loyihalashtirishda ijtimoiy tajriba va xalq og‘zaki ijodiy yutuqlaridan foydalanish imkoniyatlarini ham inobatga olishi muhimdir. Chunki o‘yinlar tashqi olamdagi voqelikni, voqea-hodisalarni bolalar ongiga yetkazishning asosiy vositasidir.

Bolalar hayotida o‘yin ularning ijtimoiy munosabatlarga kirishishlarini ta‘minlaydi. Ular o‘yin orqali jamiyat a‘zolari o‘rtasidagi o‘zaro munosabat qoidalarini, me‘yorlarini o‘zlashtiradilar, tartib-intizomga o‘rganadilar, jamoat joylarida o‘zlarini tutishni mashq qiladilar. O‘yin bolalarning jamoa a‘zolari bilan o‘tkazadigan hamkorlikdagi faoliyatining yagona turi emas. Shu sababli ham didaktik o‘yinlar bolalarning barcha faoliyat turlarini o‘zida aks ettirgan holda ularning ichki imkoniyatlarini, layoqatlarini yuzaga chiqarishga yordam beradi. Jumladan bolalarga birgalikda ishlash, faoliyat yuritish bilan birga hamkorlikda ijod qilish imkoniyatlarini ham yaratib beradi. Hamkorlikda ijod qilish davomida bolalar o‘zgalar mehnatini hurmat qilish, atrofida xohish-irodasi hamda fikrlarini hurmat qilishni o‘rganadilar. Natijada, ijtimoiy bolalar xulq-atvor me‘yorlarini va insonlar bilan hamjihatlikda faoliyat yuritish ko‘nikmalarini o‘zlashtiradilar.

Didaktik o‘yinlar davomida hamkorlikdagi faoliyatiga kirishishning asosiy ko‘rsatkichi bolalarning muloqotga kirishuvi bilan belgilanadi. Ya‘ni, bolalarning o‘yin davomidagi xatti-harakatlari emas, balki o‘zaro muloqotlari hamjihatlikdagi faoliyatining asosiy ko‘rsatkichi hisoblanadi.



Maktabgacha tayyorlov yoshidagi bolalar kognitiv ko'nikmalarini shakllantirishda ularning xotiralarida ma'lumotlarni saqlashlari, saqlangan ma'lumotlarni qayta tiklashlari ham muhim bo'lib, o'zlashtirilgan bilimlar tahlilida bolalar ushbu ma'lumotlarni o'z onglarida aks ettiradilar. Bunday jarayonlar bolalarga muayyan vazifalarni va faoliyatlarni o'zlashtirib uning mazmuniga muvofiq tarzda harakatlanishni o'rganib boradilar.

Ta'kidlash joizki, jamiyatdagi ijtimoiy tajribani mashg'ulotlar davomida bolalarning muvaffaqiyatli o'zlashtirishlari faol harakatlar mahsuli hisoblanadi. Agar pedagog maktabga tayyorlov mashg'ulotlarida asosiy e'tiborni bolaning kognitiv ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratmaydigan bo'lsa, maktabgacha va boshlang'ich ta'lim mazmuni o'rtasida uzilish sodir bo'ladi.

Maktabgacha tayyorlov yoshidagi bolalarni kognitiv rivojlantirish va ijtimoiy muloqot hamda hamkorlikka tayyorlash vazifasi ularning yosh xususiyatlari va individual rivojlanish darajalarini hisobga olgan holda o'yinlarni tanlash natijasidagina muvaffaqiyatli hal qilinadi. Chunki didaktik o'yinlar ta'lim berish bilan bir qatorda bolaning psixologik, pedagogik va fiziologik xususiyatlarini rivojlantirishga qaratiladi va maktabgacha va boshlang'ich ta'lim o'rtasida o'zaro uzviy aloqalarni o'rnatishga yordam beradi. Buning natijasida, bolaning turli psixologik xususiyatlari samarali rivojlanadi, ularda ijtimoiy muloqot va hamkorlik munosabatlari tarkib topadi.

Maktabgacha tayyorlov yoshidagi bolalar uchun foydalaniladigan o'yinlar mazmuni, rang-barangligi, qisqa muddatliligi bilan farqlanadi.

Ta'limiy o'yinlarni tanlashda quyidagi mezonlarga amal qilinadi:

1. Dasturga mosligi.
2. Bolalarning yoshiga mosligi.
3. Bolalarning jismoniy imkoniyatlari
4. Moddiy-texnik bazaning mavjudligi.

O'yin faoliyati davomida bolalarning tayyorgarlik darajasini aniqlash hamda ularning bilimlari va tasavvurlarini boyitishga alohida e'tibor qaratish lozim bo'ladi.

Adabiyotlar:

1. Абдуллаева Н. Ш. Мактабгача таълимни вариатив ёндашув асосида такомиллаштириш// пед.ф.б.ф.д(PhD) илмий даражасини олиш учун автореферати –Тошкент: МТМРМҚТМОИ, 2019. – 25 б.
2. Alimardonova M. B. Methods of solving cognitive tasks in the organization of preschool education. proceedings international scientific-practical conference on "cognitive research in education" Samarkand. 2021. 417-419 pages
3. Каптерев П.Ф .https://ru/m/wikipedia.org/wiki/Каптерев,_Петр



4. Туйчиева И.И. Мактабгача таълим ташкилотларида тайёрлов гуруҳи болаларининг фикрлаш фаоллигини ривожлантириш // пед.ф.б.ф.д. илмий даражасини олиш учун ёзилган дисс. – Тошкент: МТМРМҚТМОИ, 2020. –194 бет.

5. Тошева Н.Т. Бошланғич синф ўқувчиларида билиш фаолиятини ривожлантирувчи ўқув вази-ятларини ташкиллаштиришнинг дидактик шарт-шароитлар. Педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) дисс.я автореферати. Нукус. 2019. - 50 б.

РЕЗЮМЕ

Ushbu maqolada o'yinlar bolalarning ijtimoiylashuvidagi, ya'ni tashqi olamga moslashuvi, voqea-hodisalarni tushunishlari uchun xizmat qilish bilan bir qatorda, ularga ta'lim berishda ham asosiy vosita bo'lib xizmat qilishi yoritilgan. Bolalarni qiziqarli o'yin faoliyatiga jalb qilishda o'zligini kengroq namoyon qilishga imkon beradigan rol o'yinlarga murojaat qilish orqali bolaning o'sishi, rivojlanishi bilan birga bolalarda bilish ko'nikmasini rivojlantirilishi nazariy jihatdan asoslangan.

РЕЗЮМЕ

В данной статье подчеркивается, что игры являются основным инструментом социализации детей, то есть их адаптации к внешнему миру и осмыслению событий, а также их воспитания. Теоретически в ее основе лежит развитие познавательных способностей детей по мере роста и развития ребенка путем использования ролевых игр, которые позволяют детям шире проявить свою индивидуальность, вовлекая детей в интересную игровую деятельность.

SUMMARY

This article, it is highlighted that games are the main tool for children's socialization, that is, their adaptation to the outside world, and their understanding of events, as well as their education. It is theoretically based on the development of cognitive skills in children along with the child's growth and development by using role-playing games, which allow children to more widely express their identity while engaging children in interesting game activities.